

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MADANIYAT
VA SAN‘AT TARIXI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MADANIYAT VA SAN’AT TARIXI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Madaniyat va san’ati tarixi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbiy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Madaniyat va san’at tarixi

1. Madaniyat tarixi va nazariyasi;
2. Markaziy Osiyo san’ati tarixi
3. XX asr o‘zbek teatri tarixi;
4. Kino san’ati tarixi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1.	Madaniyat tarixi va nazariyasi	1. Madaniyat tarixi 2. Ibtidoiy davr madaniyati tarixi 3. Madaniyat nazariyasi 4. Ilk o'rta asrlar davri madaniyati 5. IX-XIII asrlarda Movoraunnahr madaniyati va san'ati tarixi 6. Temuriylar davri madaniyati tarixi	15 ta
2.	Markaziy Osiyo san'ati tarixi	1. Markaziy Osiyo san'ati tarixi. 2. Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari 3. Katta Xorazm 4. Qadimgi Baqtriya 5. Zardushtiylik "Avesto" 6. Turk xoqonligi	15 ta
3.	XX asr o'zbek teatri tarixi	1. XX asr o'zbek teatri. 2. Jadid dramaturgiyasi va tarixi 3. Mahmudxo'ja Behbudiy 4. Abdulla Qodiriy	5 ta
4.	Kino san'ati tarixi	1. Kino san'ati tarixi. 2. Turkiston kino muhiti 3. Nabi G'aniyev hayoti va ijodi 4. O'zbekkino tarixi	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-	20%

		ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	
--	--	--	--

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. U.U.Mansurov, A.Sh.To'xtabayev. "O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021.

2. A.Mavrulov, M.Mavrulova. "Madaniyat nazariyasi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Donishmand ziyosi" nashriyoti, 2023.

3. J.Ganiyev. "Markaziy Osiyo san'ati tarixi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti. 2021.

4. T.Tursunov. "XX asr o'zbek teatri tarixi". Darslik-monografiya. – Toshkent: "ART PRESS". 2010

5. M.Isoqova. “Kino va televideniye tarixi”. O‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti, 2020.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*